

**MUSTAQILLIK DAVRI YOSH SHOIRLAR SHE'RIYATIDA
POETIK SINTAKSIS MASALASI**

Saitova Nilufar Djumaydillayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o'zbek til va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik davri yosh o'zbek shoirlarining she'riyatidagi o'ziga xosliklar, xususan, ularning ifoda va tasvir uslublari tahlil qilinadi. Muallif yosh shoirlarning olam, odam, tarix, kelajak va jamiyatga bo'lgan munosabatlari, ularning she'rlaridagi poetik fikrlar, obrazlar, sintaksis va leksika o'ziga xosligini ko'rsatib beradi. Jontemir Jondor, Sh.Shavkat, M.Norchayeva, X.Abdurashid, Tillaniso, Bek Ali, T.Nuryog'du va A.Sabriy kabi shoirlar ijodining o'ziga xos jihatlari misollar bilan ochib berilgan. Maqola adabiyotshunoslar, talabalar va zamonaviy o'zbek she'riyatiga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: yosh shoirlar, o'zbek she'riyati, poetik sintaksis, tasvir uslubi, leksika, obrazlilik, ijodiy tahlil, zamonaviy adabiyot, ifoda uslubi, she'riyat tahlili

Abstract: The article analyzes the peculiarities of the poetry of young Uzbek poets of the period of independence, in particular, their styles of expression and imagery. The author shows the relationship of young poets to the world, man, history, future and society, the uniqueness of poetic thoughts, images, syntax and lexis in their poems. The specific aspects of the work of poets such as Jontemir Jondor, Sh. Shavkat, M. Norchayeva, Kh. Abdurashid, Tillaniso, Bek Ali, T. Nuryog'du and A. Sabriy are revealed with examples. The article is intended for literary critics, students and all readers interested in modern Uzbek poetry.

Keywords: young poets, Uzbek poetry, poetic syntax, imagery, lexicon, imagery, creative analysis, modern literature, style of expression, poetry analysis

Kirish

She'r ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan his-tuyg'u ifodasi sifatida

vujudga kelgan hayajonli, ritmik nutqdir. Biroq bu she'rning eng mukammal, har jihatdan yetuk ta'rifi emas. She'rning bu ta'rif doirasiga sig'magan sifat, xususiyatlari juda ko'p. Chunki Abdulla Qahhor aytganidek, "She'r – bir mo'jiza. Uning mo'jizalik sirlaridan xabardor bo'lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo'lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak". "Yana nimadir kerak" bo'lgani bois ham hamma she'r yozolmaydi yoki she'r yozganlarning hammasi ham shoir bo'lib tanilavermaydi. "She'r inson ruhining birmuncha g'ayritabiiy, ayricha holatidan tug'iladi", deydi Abdulla Oripov. She'rning "mo'jizalik sirlari" bisyorligi sababli ham u har kimga har xil ta'sir qiladi. Uni hamma har xil tushunadi. Chunki she'r – aql bilan anglash qiyin bo'lgan holatlarning so'zdagi aksi. U ko'ngil olamining tovush, harf – so'zlardagi manzarasi. She'r ko'ngil mulki mevasi bo'lgani bois ham unda ohanglar mavji, musiqa tarovati mavjud. Shu tufayli u qalbni zabt etadi – kishini bir zumda mahzun qiladi, bir lahzada quvonchga ko'madi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati, ayniqsa, yosh avlod ijodida poetik sintaksis muhim o'rin tutadi. Yosh shoirlar an'anaviy sintaktik qoliplardan chekinib, yangi ifoda usullarini izlashga intilmoqdalar. Poetik sintaksis orqali ular she'riy matnning emotsionalligi, obrazlilik va ta'sirchanligini oshirishga harakat qiladilar. Asosiy tendensiyalar: Inversiya (so'z tartibining o'zgarishi): So'zlarning odatiy tartibini buzish orqali she'riy matnga ritm va dinamika berish. Ellipsis (tushirib qoldirish): Gapning ayrim qismlarini tushirib qoldirish orqali matnning ixchamligini va ta'sirchanligini oshirish. Anaphora (takrorlash): So'zlarning, iboralarning yoki gaplarning boshida takrorlash orqali emotsionallikni kuchaytirish va ritm yaratish. Epiphora (yakunlash): So'zlarning, iboralarning yoki gaplarning oxirida takrorlash orqali ma'noni ta'kidlash va yakuniy hissiyotni kuchaytirish. Parallelizm: Gap tuzilishining parallel tuzilishi orqali obrazlilikni va ritmik uyg'unlikni yaratish. Ritorni savol va murojaatlar: Murojaat orqali o'quvchi bilan muloqot o'rnatish va emotsionallikni kuchaytirish. Pauzalardan foydalanish: Matnning ma'nosini kuchaytirish va ritmik tuzilishni yaratish uchun pauzalardan foydalanish. Sintaktik ko'chirish: Bir satrda boshlangan fikrni keyingi satrga ko'chirish orqali she'riy

matnga dinamika berish.

She'r soʻzlar tizmasidan tarkib topgan misralardan tuzilishi aniq koʻrinib turadi. Chunki soʻz va soʻzlar she'rda nasriy asardagidan koʻra boʻlakcha – oʻziga xos tarzda joylashgan boʻladi. She'rning alohida belgilaridan dastlabkisi ritmdir. Qofiyasiz, misralarida boʻgʻinlar miqdori har xil she'rlar boʻlishi mumkin. Biroq ritmsiz she'r yoʻq. Ritm – she'rning asosi. Ritm – she'riy nutqning koʻrki. U muayyan vazndagi nutq boʻlaklarining misralar, bandlarda ma'lum bir tartibda takrorlanishidan hosil boʻlgan zarbli ohangdorlikdir. Bu zarbli ohangdorlik inson sezgilariga ta'sir qiladi. Borliqdagi barcha harakat-holat muayyan zarbga – ritmga asoslanadi. Insonning yurak urishi ham, yomgʻir, qorning yogʻishi ham oʻziga xos zarb – ritm hosil qiladi. Qoʻshiq, kuy ham avval shu hodisa tufayli vujudga keladi. Raqsda ham, haykaltarosh yasagan haykalda ham mutanosiblik – ritmiklik qanchalik kuchli boʻlsa, ular shunchalik ta'sirchan boʻladi. Chunki harakat-holat, chizgilarning oʻzaro muvofiqligi kishilarning tuygʻularini toʻlqinlantirib, hissiyotlarini quvvatlantiradi. She'r soʻzga, raqs harakatga, musiqa tovushlarga asoslanadi. Shuning uchun she'rda soʻz va uning boʻlaklari, raqsda harakatlar uygʻunligi, musiqada tovushlar mutanosibligi ritmni hosil qiladi.

Ma'lumki, har bir til oʻziga xos tuzilishga ega boʻladi. Har bir til ma'lum bir grammatik me'yorlarga asoslanadi. Shunga muvofiq she'r ritmi ohangdorligini muayyan unsurlar vujudga keltiradi. Boʻgʻin, turoq, ritmik pauza, vazn ana shunday unsurlardandir. Bir nafas bilan aytiladigan soʻz va soʻzning boʻlagi boʻgʻin deyiladi. Boʻgʻin nutq tovushlaridan tarkib topadi. Boʻgʻin ohangdorlik – ritm hosil qilishi uchun ma'lum tartibda guruhlanishi – misralarda muayyan tartibda izchillik bilan takrorlanishi lozim. Boʻgʻinlarning misralarda qat'iy tartibda guruhlanishi esa turoq deyiladi.

*Odam zoti / dunyodaki bor,
Uning bilan / muhabbatdir yor.*

(Hamid Olimjon)

Bu misralarda turoqlanish 4+5 tarzida guruhlangan. Qofiyadosh soʻzlar (“bor”, “yor”)ning vazn jihatdan tengligi musiqiylikni paydo qilgan.

Misralardagi bo'g'inlar, turoqlarning ma'lum bir o'lchovda kelishi vazndir. Vazn arabcha so'z bo'lib, "o'lchov", "tarozi" degan ma'noni bildiradi. O'zbek adabiyotida she'r aruz, barmoq vaznida yaratiladi. Agar aruz Sharq adabiyotida qadimdan keng tarqalgan she'riy vazn bo'lsa, barmoq turkiy she'riyatga xos vazndir. Bundan tashqari, erkin vazndagi she'rlar (oq, erkin, sarbast) ham mavjud. Aruz, barmoq, erkin vazndagi she'rlar ifoda usuliga ko'ra, bir-biridan jiddiy farq qiladi. Ular tuzilishi, shakli, ko'rinishi jihatidan ajralib turadi. She'rshunoslik – maxsus soha. Unda juda ko'p istiloh(termin)lar mavjud. Ularning har birini atroflicha sharhlab chiqish katta hajmli alohida ishni taqozo qiladi. Chunki har bir milliy adabiyotning o'ziga xos she'r shakllari bor. Negaki she'r milliy tillarga xos xususiyatlar asosida paydo bo'ladi. Shu boisdan she'r tizimlari, vaznlari har bir xalq tilining ichki qonun-qoidalariga mos holda vujudga keladi.

Jahon adabiyotida to'rtta she'r tizimi, ayniqsa, keng tarqalgan. Bular: sillabik (bo'g'inlar miqdoriga ko'ra), metrik (turoq, to'xtam (pauza), takt miqdoriga ko'ra), sillabo-tonik (bo'g'in va ohang), tonik (ohang) tizimlaridir.

Sillabik she'r tizimi bo'g'inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir. Metrik she'r tizimi esa bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususiyatga ega. Sillabo-tonik she'r tizimi bo'lsa, urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir. Tonik she'r tizimi misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

She'r tizimi xalq tili xususiyatlariga bog'liq hodisa sanaladi. O'zbek tili ifoda imkoniyatlari, grammatik me'yorlari sillabik va metrik she'r tizimiga mos tushadi. Sharq xalqlari she'riyatida aruz va barmoq vazni deb ataluvchi she'r tizimi keng tarqalgan. Hozirgi o'zbek she'riyatida esa ular bilan bir qatorda, erkin vazn deb yuritiluvchi tizim ham mavjud.

Ifoda va tasvir usuli boshqalarnikiga o'xshamaydigan yosh shoirlarning olam va odamga, tarix va kelajakka, jamiyatdagi o'zgarishlarga, millat tafakkuridagi

evrilishlaarga bo'lgan munosabati garchi boshqa ijodkorlarning nuqtayi nazari bilan yaqin bo'lsa ham, ularning she'rlaridagi poetik fikrlar, obrazlar, she'r sintaksisi, ijod leksikasi tamomila farqlidir. Ularning she'riyati ham muayyan ma'noda takrorning turli ko'rinishlari, epitet, ramz (simvol) va badiiy ko'chimning metafora (istiora), sinekdoha, metonimiya, kinoya (ironiya), mubolag'a, oksimoron; tarse, tanosib, izdivoj, intoq, tashxis kabi yana bir nechta tasviriy-ifodaviy vositalarga to'yingan, o'zbek tili leksikasining ma'no qatlamlaridan yetarlicha ozuqalangan, leksik qatlamning yangicha ma'nolari bilan to'yingan boy she'riyat sirasiga kiradi. Yosh shoirlar she'riyati poetik sintaksisi hamda leksikasining o'ziga xosligi ana shu mezonlar asosida tahlilga tortiladi.

Dastavval, Jontemir Jondor she'rlariga ko'z tashlaganda so'roq, ritorik so'roq, undov gaplarning ko'pligi yaqqol seziladi.

Hey, Iblis, o'tkinchi havasingmi bu?

Peshonam, yuragim, tomirlarim ho'l,

Allohim, ayt, sening nafasingmi bu?!

O'lsaydim!¹

Birinchi gapdagi so'roq ohangi ikkinchi misrada sal pasayib uchinchi misrada yana-da kuchayishini so'roq hamda undov ohanglarining qorishib ketganidan kuzatishimiz mumkin bo'lsa, to'rtinchi misra endi, lirik qahramonning yuragidan kuchli his-hayajon, hayqiriq bilan otilib chiqadi. Shoirning deyarli barcha she'rlarida so'roq yoki undov ohangidagi gaplarni hech bo'lmaganda bir marta uchratish mumkin bo'lsa, ba'zilarida bir necha o'rinda uchraydi. Buni yuqoridagi misol namunasidan ham ko'rib o'tdik. Shuningdek, bu tinish belgilaridan unumli foydalanish Sh.Shavkat, M.Norchayeva, Sh.Shavkat, X.Abdurashid ijodi poetik sintaksisi uchun ham xosdir. Istiqlol davri yosh shoirlari ijodida olamni badiiy-falsafiy idrok etish dialektikasi quyidagi jihatlarda ko'zga tashlanadi. Jumladan, J.Jondor, Sh.Shavkat, X.Abdurashid she'rlarida norozilik kayfiyatidagi oshkoralik, ruhning erkka tashnaligi, tarixiy-ijtimoiy voqelikka munosabat birinchi planda tursa, shaxsiy dard va kechinmalar, muhabbat va ayriliq motivlarning lirik tasviri

¹ Жонтемир Жондор. Жазба. Шеърлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 17.

M.Norchayeva, Tillaniso, Bek Ali ijodida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, T.Nuryog‘du she‘rlarida shoirning o‘zi yashayotgan dunyoga nisbatan cheksiz isyoni va nafrati, M.Norchayeva ijodida esa, borliqqa, olamga hamdardlik ruhi sezilib turadi. Xurshid Abdurashid esa dunyoni vayron holda ko‘radi, sodir bo‘layotgan voqeliklarga norizo kayfiyatda boqadi. Yosh shoirlar she‘riyatida lirik kechinma tabiati J.Jondor va Sh.Shahriyor shoirning qanday kayfiyatda bo‘lishidan qat‘iy nazar fikr bilan qorishib ketadi, oniy kayfiyatning shiddati, savqi tabiiyligi ham yaqqol sezilib turadi. A.Sabriy she‘riyatida esa savqi tabiiylik va badiiylik me‘zonlari she‘rning shakl va mazmuniga uyg‘un bo‘lsa, Bek Alining ba‘zi she‘rlarida lirik kechinmaning yuksak pafosi ufurib tursa, ba‘zilarida notabiiylik sezib qoladi. T.Nuryog‘du, M.Norchayeva she‘riyatida esa kechinma bor, ammo lirik kayfiyat yetarlicha emas, bu ikki shoira she‘riyatidagi doimiy tushkunlik o‘quvchini bezdiradi. Badiiy ko‘chimlar she‘riy butunlikni ta‘minlaydigan omillardan biridir. Xususan, J.Jondor va Sh.Shavkat ijodidagi ko‘chimlarning ko‘pchiligi oxori to‘kilmagan original badiiyat namunalaridir. Ayniqsa, peyzaj tasvirlarida ko‘chimlar tabiiyligi bilan e‘tiborni tortadi. A.Sabriy ijodida ko‘chimlar kam uchraydi, borlarining ham ko‘pchiligini an‘anaviy ko‘chimlar tashkil etadi. M.Norchayeva ijodida ko‘chimlarda o‘ziga xos betakror joziba aks etadi. Tillaniso she‘riyatidagi badiiy ko‘chimlarda isyonkor ruh va o‘ta salbiy bo‘yoqdorlik in‘ikos etadi. Voqelikni idrok etish va uni badiiy ifodalash tendensiyalari, xususan, J.Jondor, Sh.Shavkat, X.Abdurashidlar ijodida anchayin faoldir. X.Abdurashid ijodida ham tarixiy-ijtimoiy voqelikka faol munosabat alohida o‘rin tutadi. Shoir “Uyg‘urlarim” she‘rida bu xalqning o‘zga bir mamlakat qo‘l ostida zulm chekayotganidan oromi buziladi.

Xulosa

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati yosh avlod vakillari bilan yangi ranglar va ohanglar kasb etdi. Yosh shoirlar an‘anaviy qoliplardan chekinib, o‘ziga xos ifoda uslubi, poetik fikrlash tarz, obrazlilik va tasvir vositalari orqali she‘riyat olamiga yangi nafas olib kirdilar. Har bir shoirning o‘ziga xos uslubi va dunyoqarashi ularning she‘rlarida yaqqol namoyon bo‘lib, ularga betakrorlik bag‘ishlaydi. Jontemir Jondorning so‘roq va undovga boy she‘rlari, Sh.Shavkat va

X.Abdurashidning ijtimoiy faolligi, M.Norchayevaning lirik kechinmalari, Tillanisoning isyonkor ruhi, T.Nuryog'duning nafrati va A.Sabriyning savqi tabiiyligi kabi xususiyatlar ularning ijodini rang-barang qiladi. Yosh shoirlar voqelikni idrok etish va uni badiiy ifodalashga intilib, o'z she'riyati orqali zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojiga hissa qo'shmoqdalar. Ushbu tahlil ularning ijodiy izlanishlarini ko'rsatib berishga va zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xosligini ochishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент,15-бет.(126 б)
2. Жонтемир Жондор. Жазба. Шеърлар.–Тошкент:“Академнашр”, 2022. – Б.24.
3. Норчаева М. Қумару. Шеърлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б.88.
- 4.Шахриёр Ш. Нам. Шеърлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 46.